

**O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**  
**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**  
**2018 yil yanvar oyida viloyatda bajarilgan**  
**QURILISH ISHLARI**

**KO'RSATKICHLAR:**

*Qurilish-montaj ishlari hajmi  
 – 135,0 mlrd.so'm*

*Yirik qurilish-pudrat  
 tashkilotlari ulushi – 0,4 foiz*

*Kichik korxonalar va  
 mikrofirmalar ulushi – 73,0  
 foiz*


*Norasmiy sektorning ulushi –  
 26,6 foiz*

2018 yilning yanvar oyi bo'yicha viloyatda 135,0 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,1 foizni tashkil etdi hamda 2017 yilning yanvar oyiga nisbatan 5,4 foiz punktga kamaydi.

Xususan, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 0,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 40,0 foizni tashkil etdi.


Mazkur davrda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmining kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Andijon shahrida qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan ishlar hajmi 0,5 mlrd. so'm, o'sish sur'ati 81,38 foizni tashkil etdi. 3 ta yirik-pudrat korxonalarida esa yanvar oyida qurilish ishlari hajmi bajarilmadi.

**Qurilish ishlari hajmi  
 (mlrd. so'mda)**




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlarining 73,0 foizini tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,0 foizga teng bo'ldi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun turar joylar qurish, avtomobil yo'llarini yangi qurilishi, rekonstruksiya va ta'mirlash, ijtimoiy soha obyektlari, namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqdalar.

**Qurilish ishlari umumiy hajmida hududlarning ulushi**  
(2018 yilning yanvar oyi, foizda)




**Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari hajmi**  
(mlrd. so'mda)



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 134,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 99,4 foizini tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,7 foiz punktga ko'paydi.

### Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari (foizda)



Joriy davrda norasmiy sektorda jami 35,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarildi va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101,6 foizni tashkil qildi. Qurilish ishlari hajmining baholash natijalariga ko'ra norasmiy sektordagi qurilish ishlari hajmidan 27,2 mlrd. so'm yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi, 7,0 mlrd. so'm aholi tomonidan qurilgan noturar bino-inshootlar va 1,7 mlrd. so'm aholi tomonidan amalga oshirilgan yakka tartibdagi ta'mirlash ishlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Andijon viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (0374) 228-29-37